

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI



**FARMATSEVTIK BIOETIKA
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	900 000	-	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
Ta'lif sohasi:	910 000	-	Sog'liqni saqlash
Ta'lif yo'nalishlari:	60910700	-	Farmatsiya

Toshkent -2024

Fan/Modul kodi FBE1503	O‘quv yili 2024/2025	Semestr 5	ECTS-Kreditlar 3	
Fan/Modul turi Majburiy		Ta’lim tili O‘zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 3
1.	Fan/Modul nomi	Auditoriya mashg‘ulotlar (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Farmatsevtik bioetika	45	45	90
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o‘qitishdan maqsad – Huquqiy jamiyat, demokratik davlatning shakllanishi, bozor iqtisodiyoti mexanizmlarining ijtimoiy sohada ham joriy qilinishi boshqa kasb vakillari kabi tibbiyot xodimlarining oldiga yangi vazifalar, talablar qo‘yadi. Hozirgi davrda tibbiyot xodimlarining erkin, samarali faoliyat olib borishlari uchun faqat o‘zining ixtisosini bo‘yicha yaxshi, to‘laqon bilimga egalik va tegishli ko‘nikmalarni o‘zlashtirish yetarli bo‘lmay, bulardan tashqari tibbiy faoliyat bilan bog‘liq axloqiy-etik, huquqiy me’yorlarni bilish talab etiladi. Binobarin, mazkur me’yorlar talablarini lozim darajada yoki umuman bajarmaslik fuqarolar tomonidan tibbiyot xodimlarining faoliyatiga nisbatan asosli jiddiy e’tiroz va noroziliklarning vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu muammoning yechimida bioetika fani bo‘yicha bilim, ko‘nikmalarga ega bo‘lish muhim ahamiyat kasb etadi.</p>			
	<p>Fanning vazifasi – bo‘lajak farmatsiya xodimlarida: burch, sha’n, qadr-qimmat, rostgo‘ylik, adolatlilik kabi tushunchalar bilan bog‘liq umumetik qadriyatlar haqida tasavvur uchun zamin yaratish hamda kasbiy faoliyatda vujudga keladigan etik muammolarni aniqlash, tahlil qilish va hal etish qobiliyatini shakllantirish.</p>			
<p>II. Asosiy nazariy qism</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular (ma’ruza) kiradi:</p> <p>1-mavzu. Etika va deontologiyaning umumiylasalalari.</p> <p>Etika – falsafiy fan sifatida. Etika va ahloq. Ahloqning spetsifikasi. Normativ i deskriptiv etika. Etika va huquq. Deontologiya kontseptsiyasi. Etika nazariyalari: utilitarizm, deontologik etika, U.Ross nazariyasi, yaxshi fazilatlar etikasi, feministik etika, g‘amho‘rlik etikasi.</p> <p>2-mavzu. Tibbiy etikaning tarixiy modellari.</p> <p>Qadimiy tarixda tibbiy etika. Gippokrat modeli va uning asosiy</p>				

printsiplari. Tibbiy etikaning rivojlanishida Abu Amron Musa bin Ma'munning roli. Paratsels modeli va uning asosiy printsiplari. Tibbiy etikaning rivojlanishida F.Bekon, Dj.Gregori, T.Persival ishlarining ahamiyati. Deontologiya modeli va uning asosiy printsiplari. Tibbiy deontologiya.

3-mavzu. Bioetika, tushuncha. Uning vujudga kelishida turtki omillar.

Bioetika tushunchasi. V.R.Potter ishlarining ahamiyati. Bioetikaning asosiy maqsadi. Bioetikaning vujudga kelishida turtki omillar. Bioetikaning asosiy muammolari. YuNESKOning “Bioetika va inson huquqlari bo‘yicha umum deklaratsiyasi”.

4-mavzu. Bioetikaning asosiy muammolari.

Bemorning ma’lumot olgan holda roziligi. “Miya o‘limini” aniqlash. Evtanaziya, tushuncha, tasnif. Evtanaziyaning etik va huquqiy jihatlari. A’zo va to‘qimalarning transplantatsiyasi. Transplatlar turlari. Tirik shaxs va murda donorligining etik va huquqiy jihatlari. O‘zbekistonda transplantatsiyani holati. Hayot qadriyati masalasida yondoshuvlar. Hayot sifati kontseptsiyasi. Hayot sifatini aniqlash.

5-mavzu. Biotibbiy tadqiqotlar o‘tkazilishining etik va huquqiy jihatlari.

“Nyurnberg kodeksi”. JTAning Xelsinki deklaratsiyasi. G.Bicherning “Etika va klinik tadqiqotlar” maqolasining mohiyati. Belmont hisoboti. Odamlarda biotibbiy tadqiqotlar o‘tkazishning printsiplari. Yevropa Kengashining Konvensiyasi (1997).

III. Amaliy (laboratoriya) mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-mavzu. Bioetika va uning vududga kelishiga olib kelgan holatlar.

Universal etika. Bioetikaning xususiyatlari. Bioetikaning tarkibi. Biotibbiy etikaning printsiplari va qoidalari. Bioetikaning, tibbiy etikaning avvalgi modellardan farqli xususiyatlari. Bioetika ijtimoiy institut sifatida.

2-mavzu. YUNESKOning “Bioetika va inson huquqlari bo‘yicha umum deklarasiyasi” (2005). Bioet tushunchasi. Ob’ektlar, holatlar, hattiharakatlar bioet sifatida. Bioetning reduktsiyasi va uning xususiyatlari.

3-mavzu. Bemor huquqlari va bu borada etik va huquqiy jihatlarning o‘zaro bog‘liqligi. “Bemor huquqlari bo‘yicha Lissabon deklarasiyasi” (1981, 1995). Evropa Kengashi tomonidan qabul qilingan

“Biologiya va tibbiyot yutuqlarining qo‘llanilishi munosabati bilan inson huquqlari va qadr-qimmatini himoya qilish to‘g‘risida Konvensiya: inson huquqlari va biotibbiyot to‘g‘risida Konvensiya” (1997).

4-mavzu. Tibbiy xodimlarning huquqlari. “Butunjahon tibbiyot assosiasiyasining Jeneva deklarasiyasi (vrachlarning xalqaro qasamyodi)” (1948, 1968, 1983). “Tibbiy etika xalqaro kodeksi” (1949, 1968, 1983).

5-mavzu. Tibbiyot fani va amaliyotining rivojiga bog‘liq vrach va bemor munosabatlaridagi axloqiy muammolar. R.Vitch, T.Shash va M.Xollender, E.Emanuel va L.Emanuel bo‘yicha vrach va bemor munosabatlarining etik modellari. Hamshira va bemor munosabatlarining xususiyatlari. Sh.Smit modeli.

6-mavzu. Klinik tavakkalchilik masalalari. Klinik tavakkalchilik tushunchasi. Klinik tavakkalchilik holatlarining axloqiy va huquqiy jihatlari. Tibbiyot muassasalarida tibbiy yordam ko’rsatilishi xavfsizligini ta’minlash muammosi va uning ahamiyati.

7-mavzu. Yangi reproduktiv texnologiyalarni qo‘llash va prenatal diagnostikaning etik jihatlari. Sun‘iy urug‘lantirish, ekstrakorporal urug‘lantirish va surrogat onalik masalalari. Donor tuxum hujayralaridan foydalanish va surrogat onalikning axloqiy muammolar va huquqiy jihatlari.

8-mavzu. Embrionlarda tadqiqotlar o‘tkazish masalasining axloqiy-etik jihatlari. Jahon tibbiyot assosiasiyasining “Sun‘iy urug‘lantirish va embrionlarning transplantasiyasi to‘g‘risida bayonoti” (1987). “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonuni (2019). O‘zbekiston Respublikasida tasdiqlangan yordamchi reproduktiv texnologiyalardan foydalanish tartibi bo‘yicha Nizomning (2020) mazmuni.

9-mavzu. O‘lish va o‘limning axloqiy jihatlari. Klinik va vegetativ o‘lim. Vegetativ holat. “Miya o‘limi” masalasi va uning zamonaviy tibbiy amaliyotdagi ahamiyati. “Miya o‘limining” klinik belgilari. “Miya o‘limi” diagnozini belgilash. Jahon tibbiyot assosiasiyasining “o‘lim faktini konstatasiya qilishga oid Sindey deklarasiyasi” (1968,1983), “Persistent wegetative holat to‘g‘risidagi bayonoti” (1989).

10-mavzu. Evtanaziya tushunchasi. Evtanaziyaning turlari. Evtanaziyaning ahloqiy-huquqiy jihatlari. Palliativ tibbiyot. Xospislar va ularning faoliyati. “Terminal holat to‘g‘risida Venetsiya deklaratsiyasi” (1983). “Surunkali og‘riqli o‘limga mahkum bemorlarni davolash sohasida siyosat to‘g‘risida bayonot” (1990).

11-mavzu. Transplantologiya tarixi va holati. Donorlik muammosi.

Transplantatning turlari. Tirik shaxslar va murdalar donorligi. Transplantologiyaning etik va huquqiy muammolari. Murda donorligining huquqiy modellari. O'zbekistonda a'zo va to'qimalar transplantatsiyasining tarixi va hozirgi holati. Jahon tibbiyot assotsiatsiyasining "Inson a'zolari transplantatsiyasi to'g'risida deklaratsiyasi" (1987), "Embrional to'qimalarning transplantatsiyasi to'g'risida bayonoti" (1989).

12-mavzu. Biotibbiy tekshiruvlarni tartibga solishning etik-huquqiy jihatlari. Tirik shaxslar hamda hayvonlarda tekshiruvlar o'tkazishda bioetik me'yorlar. Belmont printsiplari. R.Berch-U.Rassel qoidasi. "Hayvonlardan foydalangan holda tibbiy-biologik tekshiruvlar o'tkazish bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (1985). "Butunjahon tibbiyot assosiasiyasini Xelsinki deklarasiyasi" (1964). Etika qo'mitalari, ularning statusi va vazifalari. "Biotibbiy tekshiruvlarning ekspertizasini o'tkazuvchi etika qo'mitalari ishiga oid qo'llanma" (2000).

13-mavzu. Gen-injenerlik texnologiyalarni qo'llashning etik muammolari. Amaliy genetik usullar. Preimplantasion va prenatal genetik diagnostika. Evgenika tushunchasi. "Inson genomi va inson huquqlari bo'yicha umum deklaratsiya" (1997). Biotexnologiya, bioxavfsizlik va gen-injenerlik masalasining holati. O'zak hujayralarini qo'llash, klonlashning bioetik jihatlari.

14-mavzu. Sog'liqni saqlash tizimining ayrim sohalaridagi etik muammolar. Zamonaviy psixiatriya, narkologiyaning axloqiy-etik muammolari. Onkologik kasalliklar, OIV infektsiyasi bilan zararlangan hamda OITS kasalliklari, shuningdek o'tkir infektsion kasalliklar holatlarida bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatishning axloqiy-huquqiy jihatlari.

15-mavzu. Yangi dori-darmon vositalari, tibbiy texnologiyalarni eksperimental va klinik sinovlarini o'tkazishning axloqiy-huquqiy jihatlari. Dalillarga asoslangan tibbiyot. Klinik sinovlarni o'tkazishning metodologiyasi. Tasodifiy nazorat sinov (Randomized controlled trial)ini o'tkazish xususiyatlari. Klinik sinovlarning to'rt fazasi.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari jihozchlari bilan jihozlangan auditoriyalarda har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlarda faol va interfaol usullar qo'llaniladi. "Loyihali o'qitish", "Keys-stadi" va boshqa texnologiyalaridan foydalilanildi. Tarqatma materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

IV. Amaliy ko‘nikmalar:

- klinik faoliyatda, shu jumladan biologik tekshiruvlarni o‘tkazishda etik me’yorlarni qo‘llash;
- tibbiy faoliyatda vujudga keladigan etik muammolarni falsafiy tahlil qila olish;
- turli tibbiy muolajalar hollarida bemorning roziligi yoki noroziligini rasmiylashtirish;
- bemor va uning qarindoshlari bilan etik-huquqiy me’yorlarga rioya qilgan holda munosabatni shakllantirish;
- tibbiy faoliyatda kuzatiladigan holatlarda munozara olib borish va nizolarni hal etish.

V. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

1. Etika nazariyalari.
2. Tibbiy etikaning shakllanishida Gippokratning o‘rni.
3. Bioetikaning shakllanishida A.Shveytserning faoliyati va ishmiy ishlarining ahamiyati.
4. Bemorlarning ma’lumot olish masalasining etik-huquqiy jihatlari.
5. Tibbiy muolajalarga rozilik masalasi.
6. “Shifokor siri” muammosining etik-huquqiy jihatlari.
7. Tibbiy yordam ko‘rsatishda yetkazilgan moddiy va ma’naviy zararni qoplash masalasining etik-huquqiy jihatlari.
8. Bioetlar – bioetika fanining ob’ekti.
9. Asosiy diniy konfessiyalarda hayot va o‘lmiga nisbatan munosabat.
10. Turli mamlakatlarda “miya o‘limini” aniqlashga doir qoidalar, yo‘riqnomalar, nizomlar.
11. Tibbiy faoliyatda bevosa aktiv evtanaziyani etik-huquqiy baholash.
12. Bilvosita aktiv evtanaziya holatlaring etik-huquqiy jihatlari.
13. Tibbiy faoliyatda passiv evtanaziya muammosi.
14. Medikotanaziya, distanaziya – evtanaziyaning variantlari.
15. Suitsid – aktiv evtanaziyaning ko‘rinishi sifatida.
16. Xospislarning vujudga kelish tarixi.
17. Rivojlangan mamlakatalarda xospislar faoliyati haqida.
18. Murda donorligida rozilik prezumptsiyasi modeli.
19. Murda donorligida norozilik prezumptsiyasi modeli.
20. O‘zbekistonda homiladorlikni to‘xtatish masalasi.
21. Homiladorlikni to‘xtatish asosiy diniy konfessiyalar nuqtai nazaridan.

- | | |
|--|--|
| | <p>22. O‘zbekistonda yangi reproduktiv texnologiyalarni qo‘llash masalasining holati.</p> <p>23. O‘zbekistonda skrining markazlari faoliyati.</p> <p>24. O‘zbekistonda transplantatsiyaning etik-huquqiy jihatlari.</p> <p>25. Bioxavfsizlik, uning strukturasi va uni qo‘llashning huquqiy asoslari.</p> <p>26. Transgen o‘simlik va hayvonlarni yaratish va ulardan foydalanishning etik jihatlari.</p> <p>27. Inson genomi. Genomika va genom tibbiyotning istiqbollari.</p> <p>28. Patologik anatomiyada etika muammolari.</p> <p>29. Sud-tibbiy ekspertizada etika masalalari.</p> <p>30. Fuqarolarga stomatogik yordam ko‘rsatishning etik jihatlari.</p> <p>31. Shifokorlar faoliyatida dalillarga asoslangan tibbiyotning ahamiyati.</p> <p>32. Konvergent texnologiyalarni qo‘llashning etik jihatlari.</p> <p>33. Neyrovizualizatsiyaning ahloqiy muammolari.</p> <p>34. Nanotexnologiyalarni qo‘llashning etik jihatlari.</p> |
|--|--|

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

- ayrim nazariy mavzularni o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish;
- berilgan mavzu bo‘yicha axborot (referat) tayyorlash;
- amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish;
- mashg‘ulot mavzulari bo‘yicha konspektlar yozish;
- fanning bo‘limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo‘yicha ishlash va ma’ruzalar qilish;
- ilmiy maqola, anjumanga ma’ruza tezislarini tayyorlash;
- keys yechish;
- grafik organayzerlash, ishlab chiqish va to‘ldirish;
- krossvordlar tuzish va yechish;
- vaziyatli masalalar yechish;
- talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo‘yicha umumiyo‘ko‘rsatma va tavsiyalar:

Fan bo‘yicha mustaqil ish auditoriyadan tashqari o‘tkaziladi.

Farmatsevtik bioetika moduli bo‘yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o‘tkaziladi.

Talaba mustaqil ishni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- auditoriya mashg‘ulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyatsion

	<p>zallarda/markazlarda tasdiqlangan amaliy ko‘nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish daftarlarida aks ettirish;</p> <ul style="list-style-type: none"> - ayrim nazariy mavzularni o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish; - berilgan mavzu bo‘yicha axborot (referat) tayerlash; - berilgan mavzu bo‘yicha prezentatsiya tayyorlash; - modulning bo‘limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo‘yicha ishlash va ma’ruzalar qilish; - vaziyatli muammolarga yo‘naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;
3.	<p>VI. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • asosiy etikaga oid atama va tushunchalar, nazariyalar; • bioetikaning asosiy tamoyillari va qoidalari; • bioetikaga oid mamlakatdagi va xalqaro asosiy hujjatlar; • tibbiy faoliyatdagi munosabatlarning huquqiy va etik asoslari; • zamonaviy fan va texnika yutuqlarini biotibbiy tekshiruvlarda qo‘llashning huquqiy asoslari to‘g‘risida <i>tasavvurga ega bo‘lishi</i>; • farmatsevtik va tibbiy faoliyatda, shu jumladan biotekshiruvlarni o‘tkazishda etik me’yorlarni qo‘llash; • farmatsevtik va tibbiy faoliyatda vujudga keladigan etik muammolarni falsafiy tahlil qila olish; • tibbiy aralashuvlarga nisbatan bemorning roziligi yoki noroziligini baholay olish; • bemor va uning qarindoshlari bilan etik-huquqiy me’yorlarga rioya qilgan holda munosabatni shakllantirish; • farmatsevtik va tibbiy faoliyatda kuzatiladigan holatlarda munozara olib borish va nizolarni hal etishni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; • biotibbiy etika va tibbiy deontologiya tamoyillari va qoidalari bo‘yicha; • farmatsevtik va tibbiy faoliyatdagi etik-huquqiy masalalar bo‘yicha muammolarni hal etishda daliliy asoslar keltirish; • farmatsevtik va tibbiy faoliyatdagi noxush oqibatlarni etik-huquqiy baholash <i>ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak</i>.
4.	<p>VII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari</p> <ul style="list-style-type: none"> • Interfaol o‘yinlar;

	<ul style="list-style-type: none"> • Seminar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • Guruhlarda ishlash; • Taqdimotlarni kiritish; • Individual loyihalar; • Jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p style="text-align: center;">VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo‘yicha yozma yoki og‘zaki va test ishni muvaffaqiyatli topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. G‘iyosov Z.A. – Biotika. Darslik, T., 2023. 2. Yuldashev N.M., Saydalixodjaeva O.Z., Saidov A.B. – Biotika. Darslik, T., 2018. 3. Медицинское право. Учебник, под ред. М.С.Абдуллаходжаевой, Н.Э.Гафуровой – Ташкент, ТГЮУ, 2017. 4. Muxamedova Z.M. – Bioetikaga kirish, 2004. 5. Мухамедова З.М. и др. – Биоэтика. – ТашИУВ, 2009. 6. Muxamedova Z.,M., Umirzakova N.A. – Bioetik atamalarning izohli lug‘ati. - Т., 2020. <p style="text-align: center;">Qo‘srimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 7. G‘iyosov Z.A. – Vrach faoliyatining huquqiy asoslari. Darslik, T., 2012. 8. Indiaminov S.I. – Vrach faoliyatining huquqiy asoslari, T., 2014. 9. Iskandarov A.I., Kuldashev – Vrach faoliyatining huquqiy asoslari, T., 2005. 10.Биомедицинская этика., под ред С.Д.Денисова, Я.С.Яскевич. - Минск, БГМУ, 2011. 11.Лопатин П.В., Карташова О.В – Биоэтика, 4-изд., М., “ГЕОТАР-Медиа”, 2009. 12.Ушаков Е.В. – Биоэтика. Учебник и практикум. М., “Юрайт”, 2016. 13.Основы биоэтики и биобезопасности, под ред В.А.Абрамова. - Донецк, ДНМУ, 2013. 14.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

	<p>15.“Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 1996.</p> <p>16.“Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2019.</p> <p>17.O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.</p> <p>18.O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.</p>
	<p style="text-align: center;">Internet manbaalar</p> <p>19.www.ziyonet.uz</p> <p>20.www.bilim.uz.</p> <p>21.www.gov.uz</p> <p>22.www.press-service.uz</p> <p>23.www.edu.uz</p> <p>24.http://w.w.w.bioethica.ru/</p> <p>25.http://w.w.w.biosocial.ru/</p> <p>26.http://bioethica.iatp. by/links.htm#ev.</p>

7.	<p>Fan dasturi Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2023 yil 29 avgustdagi 4-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.</p> <p>Toshkent tibbiyot akademiyasi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</p> <p>Fanning o‘quv dasturi Toshkent tibbiyot akademiyasining 2024 yil <u>08-05-2024</u> dagi <u>03311</u> -sonli buyrug‘i (buyruqning <u>2-</u>-ilovasi) bilan tasdiqlangan.</p> <p>O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i</p> <p>Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotobbiyot va oliy ma’lumotli hamshira fakulteti dekani</p>
----	---

8.	<p>Fan/Modul uchun ma’sullar:</p> <p>G‘iyosov Z.A. – TTA, “Sud tibbiyoti va tibbiyot huquqi” kafedrasи professori, t.f.d.</p>
----	---

	Baxriyev I.I. – TTA, “Sud tibbiyoti va tibbiyot huquqi” kafedrasi mudiri, t.f.n., dotsent
9.	<p>Taqrizchilar: Ichki taqrizchi: Tursunov X.Z. – TTA, “Patologik anatomiya” kafedrasi mudiri, t.f.d., professor.</p> <p>Tashqi taqrizchi: Ro‘ziev Sh.I. – ToshPTI, “Sud tibbiyoti va tibbiyot huquqi” kafedrasi professori, t.f.d.</p>